

GULLARNING TUZILISHI VA KELIB CHIQISHI

Andijon Davlat Pedagogika instituti
Biologiya yo'nalishi talabasi

Orifjonova Surayyo Ravshanbek qizi

gulazzammamajanova515@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gullarning tuzilishi hamda kelib chiqishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gul va uning qismlarining mavjudligi mezozoy erasining bo'r davri qoldiqlaridan ma'lum. Gulning kelib chiqishi bo'yicha bir qancha nazariyalar mavjud, lekin eng ko'p tarafdorlariga ega bo'lgan nazariyalar mavjud. Gul o'sishi cheklangan, shakli o'zgargan novda hisoblanadi.

Kalit so'zlar: gul, urug'lanish, gulband, generativ organ, gultoj, urug'chi, changchi, megasporogenez.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о строении и происхождении цветов. О существовании цветка и его частей известно по останкам мелового периода мезозойской эры. Существует несколько теорий происхождения цветка, но есть те, у которых больше всего сторонников. Цветок представляет собой стебель с ограниченным ростом и деформированной формой.

Ключевые слова: цветок, оплодотворение, соцветие, генеративный орган, венчик, семя, опылитель, megasporogenez.

ANNOTATION

This article provides information about the structure and origin of flowers. The existence of the flower and its parts is known from the remains of the Cretaceous period of the Mesozoic era. There are several theories about the origin of the flower, but there are those that have the most supporters. A flower is a stem with limited growth and a deformed shape.

Key words: flower, fertilization, inflorescence, generative organ, corolla, seed, pollinator, megasporogenesis.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

Gulli o'simliklar uchun xos bo'lgan generativ organ (a'zo) hisoblanib, u o'sishi cheklangan, shakli o'zgaran novdadir hamda maxsus vazifalarni bajarishga moslashgan. Gul rivojlanishining turli bosqichlarida mikro va megasporogenez, changlanish, urug'lanish va murtakning shakllanishi, nihoyat mevaning hosil bo'lishi kabi murakkab jarayonlar o'tadi. Gul o'sishi cheklangan, shakli o'zgargan novda hisoblanadi. Gul gulband, kosachabarglar, tojbarglar, changchilar va urug'chidan tashkil topgan. Kosachabarglar gulning sirtida birinchi qatorda joylashgan bargchalardan iborat. Kosachabarglarning rangi odatda, yashil ularning soni o'simlik turiga qarab har xil bo'ladi. Ba'zi o'simliklarda (marmarak, rayhon, no'xat va b.) kosachabarglar bir-biri bilan qo'shilib, birikkan bargli tutash kosacha, boshqalarida (turp, shaftoli, o'rik va b.) birikmasdan, ayrikosacha hosil qiladi. Gultoj barglar – kosachabarglardan ichki qavatga joylashgan gulbarglardan iborat. Rangi har xil. Tojbarglar ham tutash (pechak, karnaygul, kartoshka va b. gulida) va ayritoj (o'sma, ayiqtovon, na'matak va b. gulida) bo'ladi. Changchilar gulning chang (mikrospora) hosil qiluvchi qismi. Ular uchinchi qavatni tashkil qiladi. Urug'chi gulningning urug'kurtak (makrospora) hosil qiluvchi qismi bo'lib, markazda joylashgan. Kosachabarglar bilan tojbarglar gulqo'rg'on deyiladi. Gul va uning qismlarining mavjudligi mezozoy erasining bo'r davri qoldiqlaridan ma'lum. Gulning kelib chiqishi bo'yicha bir qancha nazariyalar mavjud, lekin eng ko'p tarafdorlariga ega bo'lgan nazariyalar ham mavjud.

Gulda – gul bandi yoki gul o'rni, gulqo'rg'on barglari, changchilar va bir yoki bir necha sondagi mevbarglardan hosil bo'lgan urug'chilar bo'ladi. Gul o'rni ko'pincha yassi, ba'zisi qabariq (ayiqtovon, malina, magnoliya) yoki biroz botiq shakllarda bo'ladi. Gulyonbarg bilan gul orasidagi masofa gulband deyiladi. Gul - shakli o'zgargan, o'sishi chegaralangan spora o'zgargan, o'sishi chegaralangan spora xosil qilishga xizmat qiladigan organ xosil qilishga xizmat qiladigan organ xisoblanadi. Gulning taraqqiyoti natijasida xisoblanadi. Gulning taraqqiyoti natijasida changlanish jarayonidan keyin otalanish changlanish jarayonidan keyin otalanish natijasida tuxum xujayrasi rivojlanib urug' natijasida tuxum xujayrasi rivojlanib urug' va meva xosil bo'ladi.va meva xosil bo'ladi.Gul shamol yoki hasharotlar vositasida changlanadi. Gul changlanishga turlicha moslashgan. Masalan, hasharotlar yordamida changlanadigan o'simliklarning gullarii yirik, hidli, xilma-xil rangda bo'lib, nektar bezlari shira (nektar) ajratadi. Nektar bezlari gulning ichki qismida bo'lib, hasharotlar shira olishga qo'nganda

tanasiq changni yopishtirib olib tarqatadi. Ko'p o'simliklar (mas, yong'oq, terak, kanop, makkajo'xori va b. g'alladoshlar) shamol vositasida changlanadi. Ularning gullari mayda, ko'rimsiz, rangsiz va hidsiz, changlari quruq va yengil bo'ladi. Shunday qilib o'simliklarning urug'doshligi va evolyutsiyasini aniqlashda gullarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaharov V.B., Mamatov S., *Общая биология*. М., 2002;
2. Chyen-sov Yu.S., *Общая цитология*, М., 1984;
3. Grin N., Staut U., Teylor D., *Biologiya*, t. 1-3. М., 1990;
4. Mavlonov O., *Biologiya (Ma'lumotnoma)*, Т., 2003.
5. N.Grin va boshq. "Biologiya". 1990y.
6. A.S.Troshin va boshq. "Sitologiya". 1970y-.
7. T.B.Boyqobilov, X.Ikromov "Sitologiya."1980y.
8. Sattiboev M.S. "O'simlik hujayrasi".Т. 1990y.

**Research Science and
Innovation House**